

“Kelajak soati” darsining 1-4 sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

6-mavzu: “Gadgetlar”

Annotatsiya: Ushbu mashg‘ulot boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun zamonaviy texnologiyalar – gadgetlar (telefon, planshet, kompyuter, aqlli soat va boshqa qurilmalar) haqida tushuncha berish, ularning foydali va zararli jihatlarini farqlashga o‘rgatishga qaratilgan. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilar gadgetlar yordamida qanday qilib bilim olish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan kelishilgan tartibda foydalanish haqida ma‘lumot oladilar. Shu bilan birgalikda, gadgetlardan ortiqcha foydalanishning salbiy oqibatlarini – ko‘z salomatligiga zarar, diqqatning susayishi, jismoniy faollikning kamayishi kabi jihatlar ham muhokama qilinadi

Dars maqsadi: 1–4-sinf o‘quvchilarida gadgetlar haqida umumiy tushuncha hosil qilish, ularning foydali va zararli tomonlarini farqlash, texnologiyalardan to‘g‘ri va madaniyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘quvchilarga sog‘liqni asrash, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va ota-ona hamda o‘qituvchi belgilagan qoidalarga rioya qilish zarurligini o‘rgatish. Shu orqali bolalarda axborotdan mas‘uliyat bilan foydalanish, ko‘z salomatligini saqlash hamda real hayotdagi faoliyat va muloqotning ahamiyatini anglashga yordam berish.

Umumiy maqsad: O‘quvchilarda gadgetlar haqida umumiy tushunchalarni shakllantirish, gadgetlardan to‘g‘ri va samarali foydalanishga o‘rgatish. Gadgetlarning sog‘liq, vaqt va bilim olishga bo‘lgan salbiy ta‘sirini tushuntirib berish, ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirish.

Aniq maqsadlar:

1. Gadgetlardan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanishni o‘rgatish;
2. Gadgetlardan foydalanishda muvozanat saqlashni o‘rgatish;
3. Gadgetlardan foydalanishida ijobiy va salbiy tomonlarini farqlashga yordam berish.

 **Asosiy g‘oyalar:** O‘quvchi gadgetlardan foydalanish tartibini tushunadi. Real muloqotni qadrlashini anglaydi. Gadgetlardan me‘yorida ortiqcha foydalanish sog‘liq uchun qanchalik zararli ekanligini bilib oladi. Bolalarga oddiy va sodda tilda internetda o‘zini qanday tutish kerakligini tushuntiriladi. Men kichikman, lekin to‘g‘ri hayot tarzini tanlayman. To‘g‘ri maqsad qo‘yaman degan g‘oyalar shakllanadi.

 *“Aqlli bola – gadgetni ham aql bilan ishlatadi!”, “Gadgetga emas, kitobga yordamchi deb qara!”*

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchalar hosil qilish darajada:

- O'quvchilarda gadjetlarning foydali va salbiy tomonlarini ajrata olish ko'nikmasi shakllanadi.
- Gadgetlardan to'g'ri va me'yorida foydalanish qoidalarini o'zlashtiriladi.
- Texnologiyadan foydalanishda sog'liqni asrash, real muloqotni qadrlash, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish va o'z vaqtini to'g'ri rejalashtirish ko'nikmasi shakllanadi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- Bolalarda gadgetlardan foydalanish madaniyati haqida shaxsiy fikr va munosabat shakllanadi.
- "Nima foydali? Nima zararli?" kabi savollarga o'zi mustaqil ravishda hissiy va axloqiy yondashadi.
- Oila, do'stlik, jonli muloqot, kitob o'qish kabi insoniy qadriyatlarga qiziqishi ortishi kutiladi.
- Bolalarda vaqt qadri va uni mazmunli o'tkazish tushunchasi mustahkamlanadi.

3. Amaliy ko'nikmalarda:

- O'quvchi gadgetdan to'g'ri foydalanishni o'rganadi (masalan, vaqtni chegaralash, ko'z va sog'liq uchun zarardan saqlanish).
- Onlayn xavfsizlikni (shaxsiy ma'lumotlarni yoymaslik, notanish shaxslar bilan muloqot qilmaslik) tushunadi.
- Gadjetsiz vaqt o'tkazishning foydali usullarini bilib oladi (o'yinlar, kitob o'qish, do'stlar bilan muloqot).

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- O'quvchida gadgetlar orqali emas, jonli muloqot va hamkorlikda faoliyat olib borishga qiziqish oshadi.
- Do'stlari bilan o'zaro hurmat, qoidalarga rioya qilish va birgalikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.
- O'quvchi dars paytida gadgetdan chalg'imaslik kerakligini tushunadi.
- O'quvchi vaqtni to'g'ri taqsimlash va uning qadriyat sifatidagi ahamiyatini anglashni boshlaydi.

 **Metapredmet:** bu ta'limda o'quvchilarning faqat birgina telefon yoki kompyuter o'yinlarda emas, **oilaviy munosabatlar, hayotiy vaziyatlar va vaqtni to'g'ri tashkil qilish ko'nikmalarini** shakllantirishga, gadgetdan foydalanishda o'dob-axloq qoidalariga amal qilishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, “Gadgetlar” darsida:

- Bola yangi ma'lumotlar oladi;
- Videorolik tomosha qilib, **taassurotini aytadi** (san'at);
- Gadgetlar to'g'risida fikr bildiradi, savol-javoblarda faol ishtirok etadi (muloqot);
- Gadgetlar orqali tabiat, jamiyat, sog'liqqa ta'sir haqida mulohaza yuritadi: (tarbiya va atrof-muhit) – bu esa **metapredmet yondashuvining namunasidir**.

 **Dars hamkori:** O'quvchilarni kasb hunarga yonaltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi. info-tashxis.uz

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parcha va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 **Materiallar to'plami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

Dars tuzilishi 1-qism. Motivatsion

Dars birinchi qismining maqsadi – o'quvchilarga gadgetlar haqida tushuncha beriladi va ularning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kelajakdagi faoliyatga qiziqish va motivatsiya uyg'otish uchun mashg'ulotda video material ko'rsatiladi va qisqa so'rovnomalar o'tkaziladi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o'quvchilar darsning asosiy ma'nolarini tushunish va ochib berishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda o'quvchilarga animatsion videoroliklar namoyish etiladi va tahlil qilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g'oyalarini umumlashtirish, mashg'ulotga yakun yasash.